



*Suxrob XIDIROV,*  
*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi dotsenti, PhD*  
*E-mail: s.khidirov@mail.ru*

*Falsafa fanlari doktori DSc B.Turdiyev taqrizi asosida*

### VORISIYLIK: IJTIMOY XAVFSIZLIKNING TARIXIY SOSIOLOGIK ILDIZI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada jamiyatdagi vorisiylik va uning ijtimoiy tuzilmaga ta'siri, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy meros orqali avloddan-avlodga o'tishi muhokama qilingan. Shuningdek, vorisiylikning jamiyatdagi barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga, ijtimoiy munosabatlarga, bag'rikenglik, urf-odatlar va qadriyatlarga ta'siri, madaniy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ma'naviy qadriyatlarni, tartibni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Vorisiylikning salbiy natijalari hamda zamonaviy jamiyatga ta'sirini mustahkamlash omillari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Vorisiylik, vorisiylik konsepsiyasi, ijtimoiy tuzilma, ijtimoiy rol, madaniy meros, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy xavf, mental o'zgarish, jamoalashuv, ijtimoiy moslashuv, siyosiy vorisiylik, xalq tafakkuri.

### SUCCESSION: AS THE HISTORICAL SOCIOLOGICAL ROOT OF SOCIAL SECURITY

Annotation

The article discusses succession in society and its impact on social structure, from generation to generation through economic, cultural and social heritage. Also, the influence of succession on stability and economic progress in society, on social relations, tolerance, traditions and values, the role of maintaining cultural and social stability, in the formation of spiritual values, order is highlighted. The negative results of succession and the factors of strengthening their influence on modern society have been analyzed.

**Key words:** Succession, succession concept, social structure, social role, cultural heritage, cultural values, social risk, mental change, collectivization, social adaptation, political succession, popular thought.

### ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ: КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ КОРЕНЬ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Аннотация

В статье обсуждается преемственность в обществе и ее влияние на социальную структуру, передаваемая из поколения в поколение через экономическое, культурное и социальное наследие. Также освещается влияние преемственности на стабильность и экономический прогресс в обществе, на общественные отношения, толерантность, традиции и ценности, роль в сохранении культурной и социальной стабильности, формировании духовных ценностей, порядка. Проанализированы негативные последствия преемственности, а также факторы усиления ее влияния на современное общество.

**Ключевые слова:** Преемственность, концепция преемственности, социальная структура, социальная роль, культурное наследие, культурные ценности, социальный риск, ментальное изменение, коллективизация, социальная адаптация, политическая преемственность, народное мышление.

**Kirish.** Vorisiylik – xalq ma'naviyatini harakatlantiruvchi kuch, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ko'priq, kecha va bugun o'rtasidagi dialektik uyg'unlikdir. Vorisiylik tarixiy shakllanish tadjirlari, san'at, madaniyat, til, qadriyatlar, urf-odatlar, turmush tarzidagi o'ziga xosliklarni saqlash va avlodlarga singdirish masalalarini qamrab oladi. Vorisiylik konsepsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni belgilaydi. U oilaviy an'analardan tortib, ijtimoiy mavqe, madaniy meros va iqtisodiy resurslargacha keng birlashuvni o'z ichiga oladi.

Bugun internet, televideniye orqali singdirilayotgan mafkuralar vayronkor xususiyatga ega bo'lib, yoshlarimiz o'rtasida ma'naviy hayotimizga zid qarash, virtual olamni, g'ayrioddiy harakatlarni, an'ana va odatlarni o'zlashtirish, ommaviy madaniyat unsurlarini meyoriy qabul qilishni rivojlantirmoqda. Vorisiylikning umumiy ma'noda madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, psixologik turlari mavjud. Mashhur nemis sosiologi Maks Veber ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazarlardan qanday iyerarxiyalanganligini, shunga asosan vorisiylikning ijtimoiy tartibni saqlashdagi rolini tavsiflagan edi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonda vorisiylik jarayoni uning tarixi, madaniyati va ijtimoiy tuzilmasiga ko'ra, maxsus ahamiyatga egaligi bilan o'ziga xosdir. Vorisiylikni madaniy an'analardan, ko'nikmalardan va ta'limning uzviy qismi sifatida qabul qilishni eslatib o'tishimiz ham maqsadga muvofiq. Vorisiylikning mavjudligi jamiyatning barqaror taraqqiyotini, yo'qligi esa ijtimoiy xavfning asosiy ildizlaridan biri ekanligini belgilaydi. Ushbu fikrlarimiz sosiologiyaning mumtoz olimlaridan biri bo'lgan, fransuz olimi Emil Dyurkgeymning qarashlari bilan

uyg'un. U "...vorisiylik ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi" deya ta'kidlagan [2].

Vorisiylikning mamlakatimizdagi oilaviy munosabatlarni mustahkamlashdagi rolini alohida ta'kidlashimiz ahamiyatga molik. Ayni shu jihatlariga e'tibor qaratar ekan, mashhur olim Per Burdyo vorisiylikni "ma'naviy kapital" va "ijtimoiy kapital" kabi tushunchalar orqali tahlil qilib, vorisiylik (nasldan-naslga o'tishi) va oilaviy munosabatlarni o'rtasidagi bog'liqlik nihoyatda muhim [3]ligini ta'kidlagan.

Biz oilani, an'anaviy ravishda, jamiyatning asosiy bo'laki sifatida talqin qilamiz. Vorisiylik oiladan olingan tarbiya, bilim va ko'nikmalardan tortib, mol-mulk, hunarmandchilik, zargarlik, kulolchilik, kosiblik kabi minglab hunarlarning avloddan-avlodga o'tishini ta'minlab beradigan o'ziga xos bilimlar manbai, ayni damda madaniy qadriyatlarni kelajak avlodlarga o'tkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, oila tuzilmasi barqarorligini ta'minlaydi.

Minglab yillar davomida shakllangan ushbu tabiiy ijtimoiy jarayon, afsuski, XIX asrning o'rtalaridan boshlangan rus bosqini va XX asrning boshlarida vujudga kelib, asrning oxirigacha davom etgan sovet tuzumining totalitar mafkurasi tufayli jiddiy o'zgarishlarga uchradi hamda butun elat va millatlarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab sohalarida milliy vorisiylik yemiirila boshlandi.

Asrlar davomida ishlab kelgan vorisiylikka amal qilish mexanizmi sun'iy parchalanish evaziga quyidagi ijtimoiy xavflarni vujudga keltirdi.

Birinchidan, ta'lim tizimida, tibbiyotda, hunarmandchilikda, savdo-tijoratilikda, jamiyatning turli sohalarida ustoz-shogirdlik an'analari shakllangan ijtimoiy

aloqalar susaydi. Masalan, ta'lim tizimida harakatlangan oila, boshlang'ich maktab, madrasa kabi yaxlit bir tizim doimiy rivojlanib, muntazam aloqaga ega bo'lgan.

Hunarmandchilikdagi vorisiylik qisman saqlanib qolindi. Maqomi o'zgarsa-da, kasbga bo'lgan sadoqat doim saqlab qolindi. Masalan, hazrat Bahovuddin Naqshbandiy, hazrat Sayid Mir Kulol kabi xalqimizning buyuk shaxslar tariqat yo'lidagi maqomini saqlab qolgan bo'lsa-da, kasbiy vorisiylikni qat'iyat bilan asrashga jiddiy e'tibor qaratishdi. Chor Rossiyasi bosqinidan so'ng an'anaviy ta'lim tizimimiz, maktab va madrasamiz, xonaqoh tizimimizni yo'q qilinish, vorisiylikning eng asosiy negiziga putur yetdi. Son-sanoqsiz hunarmandchilik tizimi yo'q qilindi. YA'ni, ruslar Turkiston bozorini egallash uchun faqat o'zining fabrika zavodlaridagina ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish siyosatini olib bordi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar, xususan, kosib, kulol, zargar kabi o'nlab hunarmandchilik vakillari o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishdan mahrum bo'ldilar. Adolatsiz, cheklovlar yuzlab, minglab insonlarning asrlar davomida shakllanib kelgan noyob vorisiylik an'analari yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi. Bu haqda G'ofur G'ulomning boshdan-oxirgacha vorisiylikning tanazzuliga bag'ishlangan "Shum bola" asarida: "O'sha yillarda Toshkentda shunaqa ham jinni ko'p ediki, sanab sanog'iga yetolmaysiz: Malla jinni, Karim jinni, Mayramxon, Xol parang jip-jinni, Tojixon, Juft kaptar, Olim jinni, Eshon oyi, Ovoz jinni va boshqalar..." ular orasida jinni bo'lib qolgan ba'zi bir insonlarning taqdirini alohida yozib o'tgan. Masalan, "Mayramxon" degan jinnining kasbi chilangar bo'lib, temir-tersak asboblardan chiqqan boshlagach kasodga uchrab, jinni bo'lib qolganligini aytib o'tadi[4]. O'sha davr ijtimoiy hayotini tavsiflab bergan asarlarni tahlil qilsangiz, ruslarning turli sohalarda minglab mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qisqa muddatda kasodga uchratganligi oqibatida ko'pchilik kambag'allikka mahkum etilgani, aqldan ozganligi, eng asosiysi bu sohada vorisiylikning davom etishiga nuqta qo'yilganligini anglash mumkin.

Aytish kerakki, milliy vorisiylikni yo'q qilish siyosati Ibn Sino zamonalaridan beri rivojlanib, o'ziga xos, noyob maktab darajasiga chiqqan tibbiyot sohasini ham chetlab o'tmadi. Tibbiyot sohasi an'analari yo'q qilindi va instrumental tibbiyotga o'tildi. Bosqinchilik siyosati vorisiylik an'alarini atayin yo'q qilish orqali mustaqillikning ildiziga bolta urdi.

Ikkinchi ijtimoiy xavf bu - dinga hujum uyushtirilishidir. Diniy qarashlar ateistik mafkura bilan to'ldirildi. Imonni yo'q qilish siyosati amalda xalqni istaganicha parchalash, o'zligini butkul unutish va manqurtga aylantirishga keng yo'l ochdi. Imon vorisiylik bo'lmasa-da, kuch sifatida vorisiylik bilan yonma-yon turadi. Shu bois, dinning taqiqlanishi xalq ichida yimnonni susayishiga olib keldi. Odamlar orasida yolg'on shu darajada avj oldiki, odamlar iloji qolmaganida rost so'zlasalar, yolg'onchi sifatini oldilar. Masalan, insonlarning o'zaro muloqotida "Ilojim yo'qligidan to'g'risini aytim-da," degan gap juda faollashdi.

Bugun korrupsiyaga qarshi kurash olib borayotgan agentlik sosiologik ma'nodagi aldash, o'g'irlik kabi illatlarga qarshi kurashish deganidir.

Uchinchi ijtimoiy xavf bu- mental o'zgarishdir. Mentalni so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, o'ylash, fikrlash deganidir. Ilgari insonlar miyasida yomon narsalarni o'ylashi, hayoliga keltirishini o'zi qo'rquv bo'lgan. Hozirgi kunda esa ko'pchilik hamma narsani oldin salbiy baholaydi, agar u voqea hodisa yoki biror bir inson haqida salbiy fakt va dalillar topolmasa, undan keyin ijobiy fikrlarni aytishi urfga kirdi. Bizda o'ylashdan qo'rqish to'xtadi. Bu holat xalqning tafakkur tarzi buzilishiga olib keldi. Bu esa ijtimoiy xavfning uchinchi ildizidir. Biz, islom dini tugul, undan oldinroq xalqimiz yashash tarzi va tafakkuriga asosiy ta'sir etuvchi g'oya bo'lib kelgan Avestodagi fikrning, so'zning va amalning ezguligi haqidagi qarashlarni ham unutib yubordik. O'ylash tarbiyasi butkul buzildi. Hazrat Navoiyning "Oldiga qo'yganni yemak - hayvonning ishi, og'ziga kelganni demak - nodonning ishi" deb aytgan misralari ayni jarayonni to'la-to'kis ochib beradi.

To'rtinchi ijtimoiy xavf bu- jamoalashuv sifatining buzilganligi. Jamiyatimizda jamoalashuvning mezonlari buzildi. Masalan, ilgari odamlar pul yoki biror manfaat negizida jipslashmaganlar. Ular halollik, to'g'irlik, mehnatsevarlik, kasb,

ijod, e'tiqod va x.k kabi yo'nalishlarda o'zaro jamoalarga birikkanlar. Jamoalashishning manfaat negizida amalga oshirilishi qoralangan. Hamma illatlarning paydo bo'lishi noto'g'ri jamoalashish oqibati ekani xususida juda ko'plab mutafakkirlar o'z fikrlarini bildirganlar. Masalan, Alisher Navoiy o'zining mashhur "Majolis un-nafois" tazkirasida jamiyatdagi adolatsizliklar, axloqsizlik va ijtimoiy nomutanosibliklar va noto'g'ri jamoalar sirasida 17 nafar odamni tanqid qilgan. Har birining qilmishiga ta'rif berib o'tgan.

Jumladan: "Mavloni Ashraf — darveshvasht va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz bo'rk ustiga qurchuq chirmar zrdi. Va el bila dag'i omizishi oz erdi. Ko'proq avqot «Xamsa» tatabbu'ig'a sarf qilur erdi; to ul kitobni tugatur tavfiqi topti"[5]. Demak, to'rtinchi yirik xavf boshimizdan o'tkan mustamlaka davridagi jamoalashuv sifatining buzilganligi va uning tiklanmasligi uchun katta zarbalar berilganligi bilan xarakterlanadi.

Vorisiylikni yana bir muhim funksiyalaridan biri uning ijtimoiy moslashuvni ta'minlashdagi rolidir. Ijtimoiy moslashuv jarayon sifatida ma'lum bir vaqt davomida sodir bo'ladigan dinamik jarayon bo'lsa, vorisiylik insonlarning yangi muhitga moslashishlarida o'z xulq-atvorlarini, qadriyatlarini va fikrlash tarzini o'zgartirishdek katta vazifani bajaradi. Jumladan, inson yangi ish joyiga qabul qilinganida, shu tashkilotning bir necha avlodi tajribalari, jamoa a'zolari tomonidan davom ettirilib kelinayotgan vorisiy urf-odatlar, qadriyat va an'alar, professional qobiliyatlar va ijtimoiy ko'nikmalar uning moslashuvi jarayoniga katta hissa qo'shadi. Vorisiylikning nafaqat kichik guruhlar, tashkilot yoki muassasalar jamalarida, balki butun elat, millat hayotida aks etishini sivilizatsiya, madaniyat, san'at, odob-axloq va hatto boshqaruv jarayonida ham o'z aksini ko'rsatishida kuzatishimiz mumkin. Vorisiylikni jarayon sifatida ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan tadqiq qilish mumkinmi? Albatta, mumkin. Ko'plab ijtimoiy jarayonlar kabi vorisiylik ham ma'lum bir jamiyat yoki katta-kichik guruhlarga salbiy jarayon sifatida ta'sir etadi. Ko'p hollarda bu jarayon madaniyat va hayot tarzi to'qnashuvlarida sodir bo'ladi.

**Natijalar va muhokama.** O'zbekiston sosiologiyasi asoschilaridan biri, mashhur sosiolog olim Mansur Bekmuradov vorisiylikka bo'lgan o'z qarashlarini bildirib, uning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, vorisiylik faqat mol-mulkni o'tkazish emas, balki ijtimoiy ongda, qadriyatlarda va madaniy identifikatsiyada ham ahamiyat kasb etadi. Bekmuradov, shundan kelib chiqib, vorisiylikning ijtimoiy xavf sifatidagi roliga ham e'tibor qaratadi. U, meros olishning ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va zamonaviy talablarga moslashuvni to'sishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, vorisiylikni rivojlanish jarayonlariga moslashtirish, undagi salbiy jihatlarni umummaqbul ijobiylikka yo'naltirish lozim. Buning uchun oilaviy an'analarni zamonaviy talablarga moslashtirish kerak[6]. Masalan, "Buyuk xitoy devori"ni barpo qilish bilan bog'liq vorisiylik an'alarini olaylik. Xitoy shimoli-sharqida joylashgan bu devor, 9 ming kilometrga yaqin masofani egallagan. U miloddan avval III asrda Sin imperiyasi hukmdori Sin Shixuandi tashabbusi bilan boshlangan bo'lib qurilish to'rtinchi milodiy 1644 yilga qadar davom etgani aytiladi. 1800 yil davomida bunyod etilgan ushbu devor 25 avlodni ko'rgan. Endi biz Xiva xonligida barpo etilgan Ko'k (Kalta) minor qurilish tarixiga nazar solsak. 1853 yilda Muhammad Aminxon tomonidan boshlangan minora qurilishi 1855 yilda xonning vafoti munosabati bilan to'xtab qoladi. Keyingi Xiva xonlari turli tarixiy shart-sharoitlar va ijtimoiy vaziyatlar sababli mazkur minora qurilishini oxiriga yetkazish haqida o'ylamagan. Yana bir muhim jihati minoraning tarixi uni bitkazgan xon nomi bilan emas, qurilishni boshlagan xon nomi bilan atalishi vorisiylik an'anasi ekanligi, qolaversa, xonlarning siyosiy mustaqilliklari va shu bilan bog'liq huquqlari o'zgalarga ergashish emas, o'z pozitsiyalarida turishganliklarini aks ettirishi mumkin.

Vorisiylikda ijtimoiy rollar alohida ahamiyatga ega. Vorisiylik ijtimoiy xavfsizlikning psixologik va sosiologik aspektlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Har bir avlod o'ziga xos tartiblarni va qadriyatlarini yaratadi va bu qadriyatlar keyingi avlodlarga o'tib, ularning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Vorisiylik orqali bir jamiyatdagi odamlar o'rtasida

ishonch, hamkorlik va muvozanatni saqlash mumkin bo'ladi. Bu jarayonlarda ijtimoiy xavfsizlik ta'minotida muhim instrumentlardan biri sifatida vorisiylik musbat rol o'ynaydi. Vorisiylikning siyosiy merosdorlik jihati ham muhim bo'lib, u ko'pincha politologiya, sosiologiya kabi ijtimoiy fanlarda o'rganiladigan dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Siyosiy vorisiylikning ijtimoiy xavf jihatiga kelsak, ayniqsa, mansab va hokimiyat oilada o'tkazilishi, mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri monarxiya yoki dinastik hokimiyatlarni paydo qilishi mumkin bo'lgan jihatlari o'rganiladi. Bu jamiyatda o'z-o'zidan demokratiyani cheklash va erkinliklarni chegaralash kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida vorisiylikning ijtimoiy xavflari majburiyatlar ko'rinishida namoyon bo'lib, ta'limdagi zamonaviy qadriyatlarga katta zarar yetkazadi. Bunda vorisiylik ta'lim va martaba (karera) tanlovida ijtimoiy talablarga moslashishni talab qilishi, shaxsiy qiziqishlar va iqtidorlarni inobatga olmasligi mumkin.

“Avlod – bu aniq tarixiy davrda shakllangan va yosh farqi asosida faoliyat yurguzish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar bilan chegaralangan insonlarning obyektiv ravishda takomillashadigan sosial-demografik va madaniy-tarixiy birligi sanaladi”.[7] Kelajakda vorisiylikni ijtimoiy rivojlanish jarayonida faol ishlatiladigan mexanizm sifatida ko'rish va uni zamonaviy

talablarga moslashtirish, milliy qadriyatlarimizni saqlash bilan birga, jamiyatga yangi g'oyalarning generatsiyasini kuchaytirish orqali ijodiy fikrlashni yuksaltirishga va innovation qarashlarni rivojlantirishga yordam beradi. Vorisiylikni to'g'ri shakllantirish jamiyatni rivojlantirish jarayonlariga moslashtirish uchun oilaviy an'analarni zamonaviy talablarga moslashtirish kerak. Bundan tashqari, vorisiylik konsepsiyasini Yangi O'zbekiston jamiyatining har tomonlama rivojlanishi uchun faol tarzda qayta ko'rib chiqish va ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Vorisiylik Yangi O'zbekiston jamiyatining muhim qismi bo'lib, ijtimoiy struktura, madaniy meros va iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi. Vorisiylikning yo'qligi ijtimoiy xavfning asosiy ildizlaridan biri hisoblanadi. Bu konsepsiya jamiyatdagi tengsizliklar, an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy moslashuvni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, vorisiylik ijtimoiy xavf sifatida ham baholanishi kerak, chunki u ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirish va innovatsiyalarni rivojlanishini to'sish xavfini olib kelishi mumkin. Vorisiylikni huquqiy va ijtimoiy kontekstda to'g'ri tushunish, Yangi O'zbekistonning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash yo'lida unutilgan ijobiy vorisiylik bilan bugungi kun zamon talabalariga moslasha oladigan yangi turdagi vorisiylikni jamiyat qadriyatlari, an'analari bilan hamohanglikda rivojlantirish kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Вебер Макс. Хозяйства и общества, MWG Band 1/22.
2. Эмиль Дюркгейм. "Осуществление социальной солидарности" (1893). 104 ст.
3. Пьер Бурдьё (Bourdieu P). Ижтимоий макон ва "синфлар" генезиси / Ижтимоий фанлар бўйича тадқиқотлар. 1984. № 52-53. Пп. 3-14.
4. Фулом Ф., “Шум бола”, Адабиёт санъат нашриёти, 1983 й. 94 бет.
5. Алишер Навоий, “Мажолис ун-нафоис», 6 бет.
6. Бекмурадов, М. Ворисийлик ва ижтимоий ривожланиш. Ўзбекистон социологияси журналы, 2023 й. 4(1), 50 бет.
7. Глотов М., Поколение как категория социологии, Москва, 2004. 10-42-48 ст.